

ISMOIL GASPIRALI ASARLARIDA UTOPIK G‘OYALAR. (“DOR-UR ROHAT MUSULMONLARI” ASARI VA UNING TURKIY ADABIYOTDAGI O‘RNI MISOLIDA)

Ismatova Shirin Zayniddin qizi

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20488091>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Ismoil Gaspiralining “Dor-ur rohat musulmonlari” asari turkiy adabiyotdagi ilk utopik-sayohatnoma namunalaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Asarda jadidchilik mafkurasi, usuli jadid ta’lim tizimi, ilm-ma’rifat, ijtimoiy tenglik, gender masalasi hamda pedagogik va texnologik utopiya g‘oyalari badiiy talqin etilgani yoritiladi. Shuningdek, asardagi Andalusiya obrazi ideal jamiyat modeli sifatida baholanib, uning tarixiylik va fantastika uyg‘unligidagi poetik xususiyatlari ochib beriladi. Mulla Abbos Turkistoniy obrazi orqali Turkiston va Andalusiya hayotining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi hamda jadidchilikning tanqidiy-ma’rifiy qarashlari badiiy ifodasiga e’tibor qaratiladi. Maqolada asarning utopik makon, ramziylik, kontrast, xrono-utopik elementlar va ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan bog‘liq jihatlari ham ilmiy asosda tahlil etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Ismoil Gaspirali, “Dor-ur rohat musulmonlari”, jadidchilik, utopik adabiyot, sayohatnoma, Andalusiya, usuli jadid, pedagogik utopiya, ijtimoiy fantastika, ma’rifatparvarlik, gender tengligi, ramziylik, kontrast, tanqidiy utopiya, turkiy adabiyot.

УТОПИЧЕСКИЕ ИДЕИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО. ПРОИЗВЕДЕНИЕ “ДОР-УР РОХАТ МУСУЛЬМАНЛАРИ” И ЕГО МЕСТО В ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Исматова Ширин Зайниддин кизи

магистрант ЧГПУ

АННОТАЦИЯ: В данной статье произведение Исмаила Гаспринского “Дор-ур рохат мусулмонлари” рассматривается как один из первых образцов утопического путевого романа в тюркской литературе. В произведении освещается художественное воплощение идеологии джадидизма, системы образования усули джадид, идей просвещения, социального равенства, гендерного вопроса, а также педагогической и технологической утопии. Кроме того, образ Андалусии в произведении оценивается как модель идеального общества, раскрываются его поэтические особенности, основанные на сочетании историчности и фантастики. Через образ Муллы Аббаса Туркестани проводится сравнительный анализ жизни Туркестана и Андалусии, а также уделяется внимание художественному выражению критико-просветительских взглядов джадидизма. В статье на научной основе анализируются такие аспекты произведения, как утопическое пространство, символизм, контраст, хроно-утопические элементы и социально-философские идеи.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Исмаил Гаспринский, “Дор-ур рохат мусулмонлари”, джадидизм, утопическая литература, путевой роман, Андалусия, усули джадид, педагогическая утопия, социальная фантастика, просветительство, гендерное равенство, символизм, контраст, критическая утопия, тюркская литература.

UTOPIAN IDEAS IN THE WORKS OF ISMAIL GASPRALI. THE WORK “DOR-UR ROHAT MUSULMONLARI” AND ITS PLACE IN TURKIC LITERATURE

Ismatova Shirin Zayniddin qizi

Master’s Student of CHDPU

ABSTRACT: This article analyzes Ismail Gasprali’s work “Dor-ur Rohat Musulmonlari” as one of the earliest examples of utopian travel literature in Turkic literature. The article examines the artistic interpretation of Jadid ideology, the usuli jadid educational system, enlightenment, social equality, gender issues, as well as pedagogical and technological utopian ideas reflected in the work. In addition, the image of Andalusia in the work is evaluated as a model of an ideal society, and its poetic features based on the harmony of historicity and fantasy are revealed. Through the image of Mulla Abbas Turkistani, a comparative analysis of the lives of Turkestan and Andalusia is carried out, while special attention is paid to the artistic expression of the critical and enlightenment-oriented ideas of Jadidism. The article also scientifically analyzes such aspects of the work as utopian space, symbolism, contrast, chrono-utopian elements, and socio-philosophical views.

KEYWORDS: Ismail Gasprali, “Dor-ur Rohat Musulmonlari”, Jadidism, utopian literature, travel narrative, Andalusia, usuli jadid, pedagogical utopia, social fantasy, enlightenment, gender equality, symbolism, contrast, critical utopia, Turkic literature.

Kirish (Introduction) Ismoil Gaspirali turkiy adabiyotda jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, turli sohalarda faoliyat ko‘rsatgan. Uning “Tarjimon” gazetasi butun turkiy dunyoda katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, uning yaratgan asarlari ham turkiy xalqlar ijodida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Dor-ur rohat musulmonlari” nomli asari 1891-yilda yaratilgan noyob asar hisoblanib, badiiy adabiyotimizdagi yangi janr asosidagi ilk namunalardan biridir. Ushbu asar ijtimoiy-utopik asar sifatida nashr etilgan. Ba’zi o‘rinlarda uni xayoliy-fantastik asar sifatida ham tahlil qilish mumkin.

Turkiy adabiyotda bu janrning turli davrlarda ideallikka intiluvchi xarakterli jihatlari ko‘zga tashlangan. Ismoil Gaspirali bu asarni arabcha “Rohat uyi”, “Tinchlik makoni” ma’nolarini anglatuvchi “Dor-ur rohat musulmonlari” deb nomlaydi. Ushbu asarda voqealar va syujet tizimi Mulla Abbas Turkistoniy ismli yosh ziyoli yigitning Yevropa davlatlari orqali Ispaniyaga, qadimiy Andalus yurtiga sayohati bilan boshlanadi. Ushbu sayohat orqali islom dunyosining butun dunyoda tutgan o‘rni haqida qiyosiy va tavsifiy fikrlar bayon qilinadi. Islom dunyosining markazlashgan xalqlar qatorida Andalusiyada ham nur sochishi Mulla Abbas Turkistoniy obrazi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki voqealar rivoji aynan ushbu qahramon tilidan hikoya qilinadi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Utopik va antiutopik adabiyotga oid nazariy qarashlar jahon adabiyotshunosligida keng o‘rganilgan. Xususan, Margaret Atwood utopiyaning faqat ideal jamiyat emas, balki tanqidiy fikrlash maydoni ekanini asoslaydi. Uning “Writing Utopia” hamda “In Other Worlds” asarlarida utopik tafakkurning adabiy funksiyasi ochib beriladi.

Shuningdek, Gregory Claeys tomonidan yozilgan “The Cambridge Companion to Utopian Literature” asarida utopik adabiyotning tarixiy evolyutsiyasi va janr sifatidagi asosiy belgilar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bu yondashuv “Dor-ur rohat musulmonlari” kabi asarlarda uchraydigan “izolyatsiyalangan makon, ideal jamiyat modeli va ijtimoiy tenglik g‘oyalari ilmiy asosda tushunishga yordam beradi”. [1]

Metodologiya (Methodology). Struktural tahlil usuli orqali asardagi syujet bosqichlari — sayohat, utopik makonga kirish, jamiyatni kuzatish va qaytish jarayoni — alohida tizim sifatida o‘rganildi.

Interpretatsion metod esa asardagi ramziylik, tunnel motivi, vasiyatnoma va ijtimoiy izolyatsiya kabi elementlarning falsafiy ma’nosini ochib berishga xizmat qildi. Natijada, tadqiqot “*Dor-ur rohat musulmonlari*” asarini faqat badiiy utopiya emas, balki jadidchilik mafkurasi va ijtimoiy-falsafiy qarashlar sintezi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Markaziy Osiyo adabiyotshunosligida ham utopiya va distopiya muammosi o’rganilgan bo’lib, D. Kadirova tadqiqotlarida distopik janrning tarixiy va nazariy taraqqiyoti yoritilgan. Bu esa jadid adabiyotidagi tanqidiy utopik qarashlarni, xususan Ismoil Gaspirali ijodidagi ijtimoiy idealizmni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu ilmiy manbalar “*Dor-ur rohat musulmonlari*” asaridagi til, jamiyat modeli va ma’rifiy g’oyalarni qiyosiy o’rganishda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Tahlil (Analysis). *Birinchi bosqichda* Mulla Abbos Turkistoniy real tarixiy makon bo’lgan Parij, Ispaniya, Granada va Al-Xamra saroylarini ziyorat qiladi. U turli tarixiy va geografik jihatdan muhim bo’lgan hududlarni kezadi. Andalusiyaning shakllanish tarixi, real hayot tasvirlari hamda tasavvuriy jihatlar o’zaro uyg’un holda ifodalanadi.

Ikkinchi bosqichda esa utopik makonga o’tish jarayonining tasvirini ko’rish mumkin. Mulla Abbosning Al-Xamra saroyida tunab qolishi va Shayx Jalol nomli kekxa ziyolining uning Andalus yurtiga borishiga sababchi bo’lishi tarixiylik prinsiplari bilan ham bog’liqdir. Aynan Shayx Jalol obrazi orqali yozuvchi real dunyodan fantastik dunyoga o’tish tasvirini yuzaga keltiradi.

Uchinchi bosqichda utopik jamiyatni kuzatish jarayoni asarning markaziy qismi sifatida namoyon bo’ladi. Unda hayot tarzi, jamiyat tuzilishi, Andalus o’lkasidagi madaniyat, ilm-fan va axloq tizimlari bevosita tahlil qilinadi. Bunga sabab Ismoil Gaspiralining ko’plab ijtimoiy, madaniy va pedagogik sohalarni tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo’lganidir.

To’rtinchi bosqichda esa Mulla Abbosning sirli makonni tark etishi, Granada shifoxonasi bilan bog’liq voqealar hamda tunnelning ko’mlib qolishi orqali syujet yakuniga yetadi.

Muhokama (Discussion). Ushbu asarda utopik elementlarning tahlili ijtimoiy makon, ya’ni Andalusiyaning alternativ tarzda mavjud bo’lishi bilan bog’liqdir. Adabiyotshunoslikdagi utopik asarlarning asosiy jihatlaridan biri jamiyatning yangi va ideal modelini yaratish hamda uni izolyatsiyalangan geografik makon ichida tasvirlash hisoblanadi. Tomas Mor yaratgan “*Utopiya*” asari ham, Frensis Bekonning “*Yangi Atlantida*” asari ham aynan shu xususiyatlarni o’zida mujassam etgan. Ismoil Gaspiralining ushbu asarida ham ana shu an’ana bevosita davom ettiriladi.

“*Dor-ur rohat musulmonlari*” yashaydigan Andalus o’lkasi baland tog’lar bilan o’ralgan holda tasvirlanadi. Topografik izolyatsiya adabiyotda go’zal va yashirin makon sifatida talqin qilinadi. O’lkaning o’lchami ham ramziy xarakterga ega: bo’yi 3 soatlik, eni 2 soatlik maydon sifatida tasvirlanib, kichik, o’z-o’ziga yetarli va avtonom tizimga ega davlat sifatida baholanadi.

Ideal ijtimoiy tuzumning Andalus o’lkasida shakllanishi islomiy tarbiya va pedagogik tamoyillarning utopik shaklda ifodalanishidir. Boshqaruv tizimining Sayyid Muso naslidan kelayotgan amirlar qo’lida bo’lishi, Buyuk Kengash faoliyati hamda kengash asosidagi boshqaruv prinsipi Ismoil Gaspiralining siyosiy va ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi.

Haqiqiy tizim huquqiy va axloqiy asoslarga bo’lingan islomiy shaklda shakllanayotgan davlatda jazoning mohiyati ham o’ziga xosdir. Bu jamiyatda qamoqxona ham, qamchi jazosi ham yo’q. Hatto insonlar uchun eng katta jazo ijtimoiy izolyatsiya hisoblanadi. Bunda aybdorga hech kim salom bermaydi, u bilan suhbat qurilmaydi, hatto rafiqasi ham ota uyiga qaytadi. Axloqiy determinizm tamoyillari asosida shakllangan ushbu tizim asarda jazo vositasining ma’naviy mohiyatini ochib beradi.

Ayni vaqtda dunyo hamjamiyatida quldorlik, mustamlakachilik siyosati va o‘lim jazolari keng tarqalgan bir davrda Ismoil Gaspirali o‘z asarida bunday muammolarga utopik yechim taklif qiladi. Iqtisodiy jihatdan esa ma‘rifat iqtisodiyotining tovar sifatida emas, balki ne‘mat sifatida qaralishi utopik g‘oyaning kitob va ilmga bo‘lgan yuksak hurmat bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Texnologik daraja jihatidan Andalusiya dunyodan uzilib qolgan davlat emas. Aksincha, u rivojlangan texnologik tizimlarga ega mamlakat sifatida tasvirlanadi. Saroydan turib butun mamlakatni kuzatish imkonini beruvchi optik tizim, tuxumni sun‘iy yo‘l bilan ochirish, yer osti suvlarini chiqarish texnologiyasi hamda elektr chiroqlarning mavjudligi kelajak texnologiyasi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatlar asarni ijtimoiy fantastika janriga yaqinlashtiradi.

Pedagogik utopiya va ma‘rifat g‘oyasi ham Ismoil Gaspiralinining qarashlarida muhim o‘rin tutadi. Mulla Abbos Toshkent madrasalarida 12 yil tahsil olgan, keyinchalik Parijda ham bilimni davom ettirgan bo‘lsa-da, *“Dor-ur rohat musulmonlari”* o‘lkasiga kelgach, o‘zining hali yetarli darajada bilimli emasligini his qiladi. Shu orqali Ismoil Gaspirali turli fanlarga bo‘lgan munosabatini ham namoyon etadi. Asarda muhandislik, riyoziyot, tafsir, mantiq, siyosatshunoslik, musiqa, sarf, tibbiyot, nahv va kimyo kabi fanlar bilan bog‘liq qarashlar uchraydi.

Bu qarama-qarshiliklar jadidchilik mafkurasining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Usuli jadidning yangi an‘analar asosida ta‘lim va dinni o‘rganishga intilishi, fanlarni uyg‘unlashtirish g‘oyasi *“Dor-ur rohat”* ta‘lim tizimida amaliy jihatdan tatbiq etilgan holda tasvirlanadi. Keksa imomning Mulla Muso Abdullohga aytgan so‘zlari ham ushbu jihatdan asarning kulminatsion nuqtalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Gender utopiyasi masalasi ham asarda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu davlatda ayollar va erkaklarning munosib tarzda hayot kechirishi ideallashtirilgan tizim asosida qurilgan. *“Dor-ur rohat musulmonlari”* o‘lkasida ayollar ta‘limning turli bosqichlarida tahsil olishi mumkin edi. Huquqiy jihatdan esa ayollar qozilik vazifalarini ham bajarishi, nikoh shartnomasini ikki tomonlama kelishuv asosida tuzishi mumkin bo‘lgan. Shuningdek, mahrdan tashqari mulkiy hissa ham belgilanishi nazarda tutilgan. Nikoh uchun tibbiy guvohnomaning talab qilinishi esa yoshlarning sog‘ligi va salomatligini ta‘minlash bilan bog‘liq edi. Ismoil Gaspirali mana shunday jihatlar bizning o‘lkalarda ham joriy etilsa, jamiyat uchun juda katta ijobiy samara berishini ta‘kidlaydi.

Ismoil Gaspiralinining ushbu asarida utopik tushunchalarning turli uslublar, vositalar va shakllarda tasvirlanishiga guvoh bo‘lish mumkin. Asarning sayohatnoma shaklida yaratilgani unda bir o‘lkaning boshqa bir o‘lkaga nisbatan qiyoslanishiga urg‘u berilganini ko‘rsatadi. Ushbu uslubning badiiy samarasi ishonchlilik effekti bilan bog‘liq bo‘lib, Ispaniyaning mavjudligi, u yerda arablarning hukmronlik qilgani va Andalusiya nomli ulkan o‘lka bilan aloqador tarzda ifodalanadi. Kontrast usulida inversiya, ya‘ni o‘zgarishlar ham ko‘zga tashlanadi. Bunda asardagi voqealar va tasvir uslublari bir-biriga qarama-qarshi tarzda keltiriladi. Ikki dunyo, ya‘ni Turkiston o‘lkasidagi hayot va Andalusiya o‘lkasidagi hayot ramziylik asosida taqqoslanadi. Oddiy misol sifatida Mulla Abbosning o‘n ikki yillik tahsili Andalus o‘lkasida oddiy darajaga tenglashtirilishini ko‘rsatish mumkin. *“Insonlarning hayot tarzi, kundalik vazifalari va Andalus o‘lkasidagi boshqaruv tizimi ham Turkiston hayotidan tubdan farq qiladi. Turkistondagi diniy ta‘lim tizimi “Dor-ur rohat”dagi diniy va zamonaviy ta‘lim uyg‘unligi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi”*. [2] Ayollarning huquqsizligi va oqjaligi Turkistonda ko‘p uchraydigan hodisa sifatida tasvirlansa, Andalus o‘lkasida ayollarning huquqiy asoslarda qozilik va sudyalik ishlarini amalga oshirishi taraqqiyot belgisi sifatida ko‘rsatiladi. Jaholat va sustlik Turkistonga xos xususiyat sifatida ifodalansa, ilm, g‘ayrat va taraqqiyotning turli davlatlarda, xususan Andalus o‘lkasida mavjudligi ta‘kidlanadi.

Mafkuraviy jihatdan insonlarning faqat diniy bilimni yoqlashi Turkistonga xos bo'lsa, metodologik plyuralizmning turli usullar asosida shakllanishi *“Dor-ur rohat”*, ya'ni Andalusiya o'lkasida namoyon bo'ladi. Turkistonda qamoqxona, qamchi va majburiy mehnat kabi jazo shakllari mavjud bo'lsa, Andalusiya axloqiy-ijtimoiy jazo tizimi amal qiladi. Kontrastning eng keskin nuqtasi sifatida Toshkentda o'n ikki yil tahsil olgan, yurtida eng bilimdon hisoblangan Mulla Abbosning *“Dor-ur rohat”*da nodon inson sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatish mumkin. Jadidchilik didaktikasining badiiy ifodasi ham aynan Turkistonni tahlil qilish, uni tanqidiy baholash va boshqa davlatlar bilan qiyoslash orqali ochib beriladi. Ramziy obrazlar sifatida Al-Hamro saroyini islomiy markazlashuv timsoli sifatida baholash mumkin. Mulla Abbosning saroyda tunab qolishi orqali uning o'tmish va hozirgi davrni anglashga urinishi, ikki dunyoni qiyoslashi kuzatiladi. Andalusiya Ismoil Gaspiralinig hayotiy va xayoliy qarashlarida islom madaniyatining eng yuksak namunasi sifatida tasvirlanadi.

Bir davlatdan boshqa davlatga olib o'tuvchi tunnel esa oddiy vosita emas, balki transformatsiya va yangilanish tizimining ramziy ifodasidir. Bu tunnel qoloqlikdan taraqqiyotga o'tish yo'lini anglatadi. Mulla Abbos ham aynan shu jarayonda bir madaniy identitetdan boshqasiga o'tadi.

Miltiq va elektr kabi tushunchalar esa ilm-fan taraqqiyotining ramzi sifatida beriladi. *“Dor-ur rohat musulmonlari”*ning qurol emas, balki hayot va ma'rifat vositasida tasvirlanishi, ularning so'z qo'llash mahoratining yuksak baholanishi ham jamiyatning madaniy darajasini ko'rsatadi. Vasiyatnoma shakllari orqali esa kelajak va umidning ramziy ifodasini kuzatish mumkin. Mulla Saidning hijriy 1500-yilda ochilishi kerak bo'lgan muhrlangan vasiyatnomasi xronologik ketma-ketlik va kelajakka yo'naltirilgan umid tizimini ifodalaydi. Hikoyachi sifatida obraz yaratuvchi muallifning pozitsiyasi ham o'ziga xosdir. Mulla Abbos sodda va ko'p narsadan hayratga tushuvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Bu usul Candide asarida ham qo'llanilgan. Qahramonning sodda va murakkab g'oyalardan yiroq tarzda tasvirlanishi Mulla Abbosning hayrati orqali o'quvchini ham mushohada qilishga undaydi.

Asardagi real qatlam — Ispaniya, Granada, Al-Hamro, Andalusiya, Toriq ibn Ziyod, Ferdinand II of Aragon, Izabella, Said Muso al-G'aznaviy kabi tarixiy shaxs va makonlar bilan bog'liq bo'lib, asarning reallik xususiyatini shakllantiradi. Ismoil Gaspirali Andalusiya tarixini mukammal bilgani sababli ushbu tarixiy qatlam asarning mustahkam zaminiga aylangan. *“Dor-ur rohat musulmonlari”* asarida jadidchilik harakatining turli mafkuraviy manifestlari badiiy shaklda ifodalangan. Jadidchilik mafkurasining asosiy tamoyillari — usuli jadid, ya'ni yangi ta'lim metodi, ittifoq g'oyasi hamda turkiy xalqlarning birligi ushbu asarning g'oyaviy asosini tashkil etadi. *“Taraqqiyotning sivilizatsion rivojlanishi ilm-ma'rifat, din va ma'naviyat bilan bog'liq holda talqin qilinadi hamda jaholatga qarshi kurashning asosiy vositasi sifatida baholanadi”*. [3]

Mulla Abbosning Turkistondagi ijtimoiy muhitga nisbatan bildirgan qarashlari keyinchalik Abdulla Avloniy asarlaridagi ma'rifatparvarlik va ijtimoiy tanqid ruhiga hamohang tarzda namoyon bo'ladi. Asarda o'z jamiyatiga tashqi nigoh bilan qarash, uni tanqidiy tahlil qilish va baholash motivi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Ismoil Gaspiralinig ushbu asarini tanqidiy-utopik asar sifatida baholash mumkin. Xuddi shuningdek, Abdurauf Fitratning *“Munozara”* hamda *“Hind sayyohi”* asarlari ham Turkiston hayotini sayohat janri vositasida tanqidiy yondashuv asosida tasvirlagan asarlar sirasiga kiradi. Ushbu asarlarda ham utopik va ma'rifiy qarashlar badiiy talqin orqali ifodalangan. Ismoil Gaspiralinig *“Dor-ur rohat musulmonlari”* asari ham ana shu an'ananing muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Janr jihatidan ushbu asar turkiy nasrda yaratilgan dastlabki utopik-sayohatnoma asarlardan biri

sanaladi. Asarda o'sha davr Yevropa hayotining turli ijtimoiy va madaniy hodisalari Turkiston hamda islomiy tafakkur kontekstida talqin etiladi. G'oyaviy jihatdan esa asar jadidchilik mafkurasining mukammal badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ismoil Gaspirali publitsistik maqolalarida ilgari surgan g'oyalarini ushbu asarda obrazlar, syujet va badiiy konfliktlar orqali estetik shaklda ifodalaydi. Shu sababli asar nafaqat publitsistik, balki yuksak badiiy ahamiyatga ham ega. Tarixiy jihatdan Andalusiya obrazining markaziy o'rin egallashi va uning adabiyotga ramziy makon sifatida kirib kelishi muhim poetik xususiyatlardan biridir. Andalusiya Ismoil Gaspirali talqinida islom sivilizatsiyasining yuksak taraqqiyot timsoli sifatida gavdalanadi. Bu jihat keyinchalik XX asr turkiy adabiyotida ham muhim adabiy an'anaga aylangan.

Natija (Results). Metodologik jihatdan asarda reallik va noreallik, tarixiylik va utopiklik, publitsistiklik va badiiylik kabi qatlamlarning o'zaro uyg'unlashganini kuzatish mumkin. Ana shu sintez natijasida *“Dor-ur rohat musulmonlari”* jadid adabiyotining nafaqat mafkuraviy, balki estetik jihatdan ham yetuk namunalaridan biri sifatida baholanadi. *“Asarning utopiklik xususiyati izolyatsiyalangan, ya'ni himoyalangan geografik makon tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi”*. [4] To'rt tomonning baland tog'lar bilan o'ralgani, tashqi dunyodan ajralganlik holati hamda kirish-chiqishning yashirin tunnel orqali amalga oshirilishi utopik adabiyotning klassik an'alariga xos bo'lgan yashirin va ideal makon tasviri bilan bog'liqdir.

Muqobil ijtimoiy tuzumning mavjud dunyo hayotidan farqli jihatlari ham asarda aniq ko'zga tashlanadi. Buyuk Kengash, amirlik boshqaruvi, ayollarning jamiyatdagi mavqei hamda *“sho'ro”* deb ataluvchi boshqaruv prinsiplari ushbu ideal tizimning asosiy belgilaridan biridir. Axloqiy-ta'limiy va intizomiy jazo tizimida ayollar hamda erkaklar uchun qamoqxonalarning mavjud emasligi, buning o'rniga ijtimoiy izolyatsiya va axloqiy determinizmdan foydalanilishi asarning muhim utopik jihatlardan hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining bir-biri bilan suhbatlashmasligi, hatto oylar davomida sukut saqlashi axloqiy-ijtimoiy jazo mexanizmi bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Ismoil Gaspirali ushbu tizimni keskin tanqid qilmaydi, aksincha uni tahlil qilish orqali Turkistondagi mavjud voqelikni tanqidiy baholaydi.

Pedagogik utopiya masalasi ham asarda alohida ahamiyatga ega. Din va zamonaviy fanlarning uyg'un holda tushuntirilishi tibbiyot, kimyo, fiziologiya, muhandislik kabi sohalar bilan bog'liq tarzda ifodalanadi. Bu esa jadidchilik mafkurasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan ilm va ma'rifat uyg'unligini ko'rsatadi. Texnologik jihatdan ilg'orlik ham Andalusiya o'lkasining muhim xususiyatlaridan biridir. Elektr chiroqlarining mavjudligi, optik kuzatuv tizimlari, saroylarning yoritilishi kabi tasvirlar kelajak texnologiyalari tushunchasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Gender tengligi masalasi esa ayollarning ta'lim olishi, nikohning ikki tomonlama kelishuv asosida shakllanishi kabi jihatlar orqali ochib beriladi. Ma'rifat va iqtisodiyot tizimida pochta xizmatining bepul bo'lishi, kitoblarning bepul tarqatilishi hamda ilm olish imkoniyatining barcha uchun tengligi jamiyatning umumiy farovonlik tamoyiliga asoslanganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy tenglik va tabaqalarga bo'linishning deyarli mavjud emasligi insonlarning faqat ilm va mehnat asosida qadrlanishi bilan izohlanadi. Shu jihatdan Andalusiya o'lkasi ma'rifatparvar jamiyat modeli sifatida tasvirlanadi. Ijtimoiy sanitariya, axborot va texnologik infratuzilma jihatidan ham Andalusiya o'ziga xos taraqqiy etgan makon sifatida namoyon bo'ladi. *“Telefon tarmoqlari, elektr simlari, otsiz va olovsiz temir yo'llar, turli muhandislik texnologiyalari hamda nikohning tibbiy guvohnoma asosida rasmiylashtirilishi kabi jihatlar buning yorqin misolidir”*. [5] Asarda kuzatuvchi yashirin vasiyatnoma orqali ifodalangan xrono-utopik element ham mavjud. Bu Said Musoning hijriy 1500-yilda ochilishi kerak bo'lgan vasiyatnomasi bilan bog'liq bo'lib, kelajakka

yo'naltirilgan umid va ma'rifiy istiqbol ramzi sifatida talqin qilinadi. Andalusiya o'lkasiga olib boruvchi tunnellingarning keyinchalik ko'milib ketishi esa voqealarning haqiqat va xayolot o'rtasidagi noaniqligini kuchaytiradi. Natijada asarda tanqidiy-utopik xususiyat shakllanadi. Shu bilan birga, sivilizatsion konstrukt sifatida Andalusiya o'lkasining Yevropa xalqlari hamda Turkiston bilan o'zaro munosabatlari ham asarning muhim g'oyaviy qatlamlaridan birini tashkil etadi.

Xulosa (Conclusion). Ismoil Gaspiralinig “Dor-ur rohat musulmonlari” asari turkiy adabiyotda utopik tafakkur va jadidchilik mafkurasining badiiy ifodasi sifatida muhim o'rin egallaydi. Asarda tasvirlangan Andalusiya modeli ideal jamiyat konsepsiyasi sifatida ilm-ma'rifat, ijtimoiy tenglik, gender muvozanati va axloqiy tartibga asoslangan tizimni namoyon etadi. Bu jihat orqali muallif mavjud Turkiston voqeligi bilan muqobil sivilizatsion modelni qiyoslash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asardagi utopik makon izolyatsiyalangan geografik hudud sifatida emas, balki ma'naviy, ilmiy va ijtimoiy yuksalish ramzi sifatida talqin qilinadi. Tunnel, vasiyatnoma, sayohat motivi kabi badiiy elementlar esa real va xayoliy olam o'rtasidagi chegarani yo'qotib, asarning falsafiy chuqurligini oshiradi. Shuningdek, asarda ilgari surilgan pedagogik utopiya, fanlar uyg'unligi va ma'rifatparvarlik g'oyalari jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Atwood, M. In other Worlds. SF and the Human Imagination. – New York: Virago. – 2011.
2. Mansurjonova, Gulbahor Muhammadsobir Qizi (2023). XURSHID DO'STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDA ANTIUTOPIK G'OYALAR TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 272-275.
3. Price B. Political Thought in Thomas More's Utopia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 214 p
4. <https://www.researchgate.net/publication/398866332> UTOPIYA TOMAS MORNING ORZULAR DUNYOSI VA UNING ADABIYOTDAGI ABAD IY AKS-SADOSI
5. <https://www.doclab.uz/product/utopiya-i-antiutopiya>